

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.13.30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**XALILOV SIROJIDDIN PANJIEVICH**

**MASOFAVIY TA'LIM JARAYONLARIDA TINGLOVCHILAR O'QUV  
FAOLIYATINI VIDEOMONITORING QILISH AXBOROT TIZIMI,  
MODEL VA ALGORITMLARI**

05.01.10 – Axborot olish tizimlari va jarayonlari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Xalilov Sirojiddin Panjiyevich**

Masofaviy ta'lim jarayonlarida tinglovchilar o'quv faoliyatini videomonitoring qilish axborot tizimi, model va algoritmlari .....

**Халилов Сирожиддин Панжиевич**

Информационная система, модель и алгоритмы видеомониторинга учебной деятельности слушателей в процессе дистанционного обучения .....

**Khalilov Sirojiddin Panjievich**

Information system, model and algorithms for video monitoring of learners' educational activities in distance learning processes .....

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.13.30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**XALILOV SIROJIDDIN PANJIEVICH**

**MASOFAVIY TA'LIM JARAYONLARIDA TINGLOVCHILAR O'QUV  
FAOLIYATINI VIDEOMONITORING QILISH AXBOROT TIZIMI,  
MODEL VA ALGORITMLARI**

05.01.10 – Axborot olish tizimlari va jarayonlari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/T5529 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiyasi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengashning veb sahifasida ([www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xamdamov Utkir Raxmatillayevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Saidov Abdusobir Abdurahmonovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Kalandarov Ilyos Ibodullayevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 25 dekabr da soat 16<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100202, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43, faks: (99871) 238-65-52, e-mail: [tuit@tuit.uz](mailto:tuit@tuit.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (384 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100202, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 03 dekabr kuni tarqatildi.  
(2025 yil 01 12 dagi 36 raqamli reestr bayonnomasi).



**M.M.Musayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, t.f.d., professor

**E.SH. Nazirova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, t.f.d., professor

**Dj.B. Sultanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash huzuridagi ilmiy  
seminar raisi, t.f.d., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi va zarurligi:** Jahonda masofaviy ta'lim so'nggi yillarda, ayniqsa global pandemiya davridan keyin keng tarqaldi. Tinglovchilarning o'quv faoliyatini monitoring qilish esa ta'lim sifatini oshirish, ishtirokni baholash va o'qitish jarayonini optimallashtirishda muhim vositaga aylandi. Videomonitoring tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti bu jarayonda samaradorlikni ta'minlash uchun yangi texnologik echimlarni talab qiladi. Tadqiqot mavzusi sifatida bu yo'nalish O'zbekiston ta'lim tizimida ham dolzarb hisoblanadi, chunki masofaviy ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki masofaviy ta'lim jarayonlarini tashkil etishda uning uzluksizligini ta'minlash hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini va kasbiy rivojlanishning yangicha shakllarini o'zlashtirish orqali mustaqil ta'lim olishga yo'naltirilgan yo'nalishning variativ tizimini ishlab chiqish asosiy yo'nalishlar sifatida qaraladi. Angliyada tajribali kadrlarni tayyorlash turli yondashuvlar asosida tashkil etiladi. AQSHda oliy ta'lim tizimi masofaviy ta'lim jarayonlarini monitoringi Federal ta'lim vazirligining avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, ta'lim oluvchilar o'z ish vaqtining 30 foizini amaliyotga yo'naltirilgan faoliyatiga ajratadilar. Bu faoliyat talabaning o'z kompetentligini amaliyotda oshirishi hamda mehnat bozoridagi mutaxassisligiga tegishli jarayonlar bilan uzviy aloqada bo'lishini ta'minlaydi.

Respublikamizda oliy ta'lim tizimi masofaviy ta'lim jarayonlarida keng islohotlar olib borilmoqda, xususan, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish, bundan tashqari imtihon jarayonida talabaning shaxsini avtomatik ravishda autentifikatsiyalash, uning xatti-harakatlari va nigohi yo'nalishini nazorat qilish, xonadagi tovushlarni tahlil qilish, videodagi buzilishlarni tuzatish bo'yicha chora - tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida, jumladan, "...oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ta'lim tashkilotlari infratuzilmasini yanada rivojlantirish, sohaga axborot - kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish" vazifalari belgilangan.<sup>1</sup> Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish, o'quv jarayonining monitoringi, dars mashg'ulotlari va nazorat tadbirlarini kuzatish va tahlil qilish, masofaviy ta'lim jarayonlarida tinglovchilar o'quv faoliyatini videomonitoring qilish algoritmlari va axborot tizimini ishlab chiqish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" gi farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari”gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 559-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli barcha me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi:** Dunyoning ko‘p sonli yetuk ilmiy tadqiqot ishlarida monitoring masalasi, talabalari o‘zlashtirish ko‘rsatikichlari, ta’lim jarayonlari samaradorligini baholashning muhim shaklini joriy qilish bo‘yicha Adam Swinyard, Niall Marriott, J.D.Willms, E.N. Richixina, Ye.A.Semina, A.N.Mayorov, V.I.Vovna, N.F.Ilina, shuningdek, pedagogik jarayonlarni monitoringini olib borishning axborot tizimi model va algoritmlarini ishlab chiqish bo‘yicha olimlar ilmiy faoliyat olib borishgan.

Respublikamizda axborot tizimlarini modellashtirish, dastur algoritmlarini ishlab chiqish, ma’lumotlarni qidirish, ta’limda axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha A.A.Abduqodirov, M.Aripov, U.Begimkulov, U.R.Xamdorov, A.X.Nishanov, A.B.Akbaraliyev, N.I.Taylaqov, S.S.G‘ulomovlar, axborot tizimlarida intellektual tahlillash usullari asosida ma’lumotlarga ishlov berish, bilimlar bazasini shakllantirish masalalari bo‘yicha M.A.Raxmatullaev, A.X.Nishanov, B.B.Mo‘minovlar, axborot tizimlari va jarayonlarini modellashtirish masalalari bo‘yicha A.A.Saidov, J.B.Sultonov, B.Maxmanov, B.B.Elov, J.B.Elovlar ilmiy tadqiqot olib bormoqdalar.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini yordamida masofaviy ta’lim jarayonlarida tinglovchilarning ishtirokini real vaqt rejimida videomonitoring qilishni modellashtirish, masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish, nazorat jarayonlarining monitoringi, dars mashg‘ulotlari va nazorat tadbirlarini kuzatish va tahlil qilish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish, tinglovchilar shaxsini avtomatik ravishda autentifikatsiyalash muammolari etarli darajada o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** № FL-9024093942 sonli “Yangi aqlli materiallarni yaratish sun’iy intellekt, Big Data jarayonlarini modellashtirish tadqiq etish” nomli ilmiy loyiha va

“Cyber4CA:Markaziy Osiyo raqamli mehnat bozori uchun kiberxavfsizlik bo'yicha innovatsion magistratura ta'lim dasturini ishlab chiqish (Cyber4CA: Development of Innovative Graduate Educational Program in Cyber Security for Digital labor market of Central Asia)” loyihalari doirasida.

**Tadqiqotning maqsadi:** Masofaviy ta'lim jarayonida tinglovchilar o'quv faoliyatini videomonitoring qilish, shaxsini avtomatik ravishda autentifikatsiyalash, ularning xatti-harakatlari va nigohi yo'nalishini nazorat qilish model va algoritmlarini ishlab chiqish hamda axborot tizimini yaratishdan iborat.

**Tadqiqot ishining vazifalari:**

masofaviy ta'lim jarayonidagi tinglovchilarning o'quv faoliyatini videomonitoringini olib borishni tashkil etishning ilmiy, uslubiy, tashkiliy hamda dasturiy ta'minotini tizimli tahlil qilish;

masofaviy ta'lim jarayonlarida tinglovchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish va boshqarishga asoslangan intellektual videomonitoring tizimining takomillashtirilgan funksional tuzilmasi ishlab chiqish;

masofaviy ta'lim axborot tizimining tinglovchilar bilimini baholash va ta'lim olish jarayonlarida ta'lim oluvchilar shaxsini avtomatik identifikatsiya qilish, kamera oldidagi harakatlari va yuzining soxtaligini aniqlashning neyron tarmoqqa asoslangan modellari ishlab chiqish;

masofaviy ta'lim oluvchi talabalarning o'quv faoliyatini videomonitoring qilish axborot tizimidagi talabalar harakatini baholash jarayonlarining axborot modellari va algoritmlarini ishlab chiqish;

masofaviy ta'lim jarayonlarida tinglovchilar o'quv faoliyatini videomonitoring qilish axborot tizimining arxitekturasini hamda boshqa tizimlar bilan integratsiya interfeyslari ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida masofaviy ta'limda tinglovchilar o'quv faoliyatini videomonitoring qilish, ularni avtomatik autentifikatsiyalash va xatti-harakatlari nazorat qilish jarayonlari qaralgan.

**Tadqiqot ishining predmeti** masofaviy ta'lim jarayonidagi tinglovchilarning o'quv faoliyatini videomonitoring qilish asosida shaxsini avtomatik ravishda autentifikatsiyalash, uning xatti-harakatlari va nigohi yo'nalishini nazorat qilish modellari, algortimlari va axborot tizimlaridan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida qiyosiy tahlillash, axborot jarayonlarini tavsiflash, biznes jarayonlarini modellashtirish, qaror qabul qilish usullari obyektga yo'naltirilgan dasturlash, tajriba-hisoblash va modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

masofaviy ta'lim jarayonlarida tinglovchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish va boshqarishga asoslangan intellektual videomonitoring tizimining takomillashtirilgan funksional tuzilmasi ishlab chiqildi.

masofaviy ta'lim axborot tizimining ta'lim olish jarayonlarida tinglovchilar shaxsini avtomatik identifikatsiya qilish, kamera oldidagi harakatlari va yuzining soxtaligini aniqlashning neyron tarmoqqa asoslangan modellari ishlab chiqilgan;

masofaviy ta'lim oluvchi talabalarning o'quv faoliyatini videomonitoring qilish axborot tizimi asosida talabalar harakatini baholash jarayonlarining axborot modellari va algoritmlari ishlab chiqilgan.

masofaviy ta'lim jarayonlarida tinglovchilar o'quv faoliyatini videomonitoring qilish axborot tizimi asosida tizimning arxitekturasini hamda boshqa axborot tizimlari bilan integratsiya interfeyslari ishlab chiqilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

masofaviy ta'lim jarayonlarini samarali boshqarish, monitoring qilish, videoanalitika va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda tinglovchilarning o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish, baholash hamda tahlil qilish axborot tizimi ishlab chiqilgan;

yaratilgan model va algoritmlar orqali tinglovchilarning yuz ifodalari, tana harakatlari va diqqat markazlashuvi asosida ularning darsga jalb qilish darajasini aniqlash asosida mashg'ulotlarga ishtirokini avtomatik baholash bilan masofaviy ta'lim jarayonining sifatini oshirish maqsadida AutoProctoring axborot tizimi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari ilmiy va amaliy jihatdan ishonchli bo'lib, bu bir qator nazariy va eksperimental tadqiqotlar, aniq metodik yondashuvlar va tahlillar orqali tasdiqlandi. Ilmiy ishonchlilikni ta'minlash uchun tadqiqotda zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar va matematik modellashirish usullari qo'llanildi. Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar keng statistik tahlil asosida qayta ishlanib, natijalar aniq ilmiy dalillarga asoslangan.

Ishlab chiqilgan model va algoritmlar real ta'lim muhitida eksperimental sinovdan o'tkazilib, o'quv jarayonida tinglovchilarning faoliyatini kuzatish va baholashda yuqori samaradorlik ko'rsatdi. Sinovlar turli ta'lim muassasalarida va har xil sharoitlarda o'tkazilib, tizimning aniqligi va ishonchliligi tekshirildi. Shuningdek, ta'lim jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash va ma'lumotlar shaffofligini saqlash maqsadida blokcheyn texnologiyalari joriy etilishi natijalarning ishonchliligini mustahkamlagan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati masofaviy ta'lim jarayonida tinglovchilarning o'quv faoliyatini videomonitoring qilishning axborot modeli, autentifikatsiyalash, xatti-harakatlar va soxta yuzlarni aniqlash modeli hamda oliy ta'lim muassasalarining masofaviy ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalarni videomonitoring qilish jarayonlari algoritmining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati masofaviy ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini monitoring qilish maqsadida videoanalitika va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda tinglovchilarning o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish, baholash hamda tahlil qilish axborot tizimi hamda tana harakatlari va diqqat markazlashuvini aniqlash orqali mashg'ulotlarga ishtirokini avtomatik baholashning AutoProctoring axborot tizimi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan masofaviy ta'lim jarayonlarida tinglovchilar



o'quv faoliyatini videomonitoring qilish axborot tizimi model va algoritmlari asosida:

masofaviy ta'lim jarayonlarida tinglovchilar o'quv faoliyatini videomonitoring qilish axborot tizimi "Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti"ning Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va masofadan o'qitishni tashkil etish bo'lim tinglovchilar o'quv faoliyatini videomonitoring qilish uchun joriy qilindi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 20-iyundagi 4/17-06/20-05-10-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilarning masofaviy kurslardagi ishtiroki va faoliyatini avtomatlashtirilgan tarzda kuzatish orqali o'quv jarayonini boshqarish sifati 25% oshdi;

masofaviy ta'lim jarayonlarida tinglovchilar o'quv faoliyatini videomonitoring qilish axborot tizimi "Sarbon universiteti" ning ta'lim jarayonidagi masofaviy tashkil etilgan yakuniy va oraliq nazorat test imtihon vaqti talabalarning harakatlarini real vaqt rejimida kuzatish va imtihonlarda adolatli o'tishimi ta'nimlash uchun foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 20-iyundagi 4/17-06/20-05-10-sonli ma'lumotnomasi). Natijada videomonitoring tizimini aldash holatlarini aniqlash samaradorligi 6% ga yaxshilangan, boshqa tizimlarga nisbatan ya'ni 9% pasayishga erishdi;

masofaviy ta'lim jarayonlarida tinglovchilar o'quv faoliyatini videomonitoring qilish axborot tizimi "ICT ACADEMY" nodavlat ta'lim muassasasi qoshidagi masofaviy o'qitish jarayonida joriy etilgan videomonitoring axborot tizimi ta'lim jarayonini avtomatlashtirish, tinglovchilar ishtirokini real vaqt rejimida baholash, shaxsni aniqlash va faollik darajasini monitoring qilish uchun joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 20-iyundagi 4/17-06/20-05-10-sonli ma'lumotnomasi). Tizim yordamida tinglovchilarning darsga jalb etilganlik darajasi, diqqat va davomati sezilarli darajada oshdi, texnik resurslardan foydalanish samaradorligi esa 100% ga yetkazildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobat siyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan 7 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi kommissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 5 ta xorijiy jurnallarda va 3 ta Respublika jurnallarida, xalqaro va respublika konferensiyalarida 10 ta, shuningdek boshqa ilmiy jurnallarda 2 ta hamda 1 ta EHM uchun dasturiy mahsulotlarga guvohnomalar olingan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgilar va atamalar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilab olingan, tadqiqotning ob'ekti va predmeti aniqlangan. O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati ochilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinish holati, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Korporativ axborot tizimlarida intellektuallashtirish videomonitoring jarayonlarining tizimli tahlili”** nomli birinchi bobida ta'lim jarayonlarini boshqarishning korporativ axborot tizimlarida videomonitoring usullari va texnologiyalarining tahlil qilingan, masofaviy ta'lim platformalarida foydalanuvchilarni biometrik identifikatsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan, tasvirlarga ishlov berish va tanib olish usullariga asoslangan videomonitoring jarayonlaridagi asosiy yondoshuvlar ko'rib o'tilgan. Shuningdek, masofaviy ta'lim jarayonlarini tashkil etishning samaradorligini oshirish muammolari va tadqiqot vazifalari belgilab olingan.

Ta'lim jarayonlarini boshqarishning korporativ axborot tizimlarida videomonitoring usullari va texnologiyalarining holati o'rganilgan bo'lib. Xususan, pandemiya davrida masofaviy ta'limga o'tilgach, onlayn imtihonlarda akademik halollikni ta'minlashda proktoring tizimlarining roli keskin oshgani kuzatish mumkin. Proktoring tizimlarining texnologik jihatlari – foydalanuvchi autentifikatsiyasi, monitoring jarayonini boshqarish, hisobotlar tayyorlash, shuningdek, texnik va huquqiy talablar qamrab olingan. ProctorEdu, Examus kabi ilg'or tizimlarning afzallik va kamchiliklari ko'rsatib o'tilgan. Onlayn proktoringning jonli, yozib olinadigan va avtoproktoring kabi shakllarining solishtirma tahlili keltirilgan.


Tasvirlarga ishlov berish va ularni tanib olish algoritmlari asosida monitoring tizimlarining texnik imkoniyatlari yoritilgan. Kompyuterli ko'rish, konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN), ko'p qatlamli neyron tarmoqlar, Xolfield tarmoqlari va yuqori tartibli neyron tarmoqlarning tasvirni qayta ishlashdagi roli ochib berilgan. Viola–Jones algoritmi, elastik grafik taqqoslash va chiziqli diskriminant tahlil kabi yondashuvlar ilmiy mezonlar asosida solishtirilgan.

Tadqiqotning dolzarbligi asosida asosiy ilmiy muammo aniqlanib, dissertatsiya doirasidagi vazifalar belgilab olindi. Jumladan, masofaviy ta'limda tinglovchi faoliyatini videomonitoring orqali baholash, yuzni biometrik identifikatsiyalash, xatti-harakatlarni real vaqtda tahlil qilish va sun'iy intellekt asosida integrallashtirish algoritmlarni ishlab chiqish vazifalari shakllantirildi.

Dissertatsiyaning **“Intellektuallashtirish videomonitoring jarayonlarini tashkil etish va takomillashtirish”** nomli ikkinchi bobida, masofaviy ta'lim jarayonlarida tinglovchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish va boshqarishning videomonitoring tizimini modellashtirish, masofaviy ta'lim jarayonida tinglovchini monitoring qilish uchun tasvirlarni qayta ishlash algoritmi taqqoslash, intellektuallashtirish videomonitoring jarayonlarida tinglovchini tanib olish va qaror

qabul qilish samaradorligini oshirish va ta'lim jarayonlarini boshqarishning ko'p bosqichli imitatsion modelini ishlab chiqishligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-iyundagi PF-4732-son farmoni– bu masofaviy ta'limni rivojlantirishning umumiy strategik asoslarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 559-son qarori – masofaviy ta'lim platformalari, talablar, nazorat shakllari va monitoring mezonlarini belgilangan. Quyidagi rasmda keltirilgan masofaviy ta'lim oluvchi talabalarning o'quv faoliyatini videomonitoring qilish axborot tizimining IDEF0 asosidagi funksional model keltirilgan bo'lib, axborot tizimida har tinglovchi tomonidan bajariladigan amallar bir necha jarayonlarga bo'lingan holda videomonitoring qilinadi. Ushbu model masofaviy ta'limning barcha ishtirokchilarini yagona monitoring asosidagi axborot tizimida birlashtiradi. Bu esa ta'limda sifatni nazorat qilish, raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish va akademik halollikni mustahkamlash uchun zaruriy yechimdir.



**1–rasm. Masofaviy ta'lim oluvchi talabalarning o'quv faoliyatini videomonitoring qilish axborot tizimining IDEF0 asosidagi funksional model**

Bu model ma'lumotlarni boshqarishni osonlashtiradi va katta hajmdagi ma'lumotlarni tez qayta ishlash imkonini beradi. Statistik ma'lumotlarni qayta ishlashda dinamik qatorlar va tizimli tahlil usullari qo'llaniladi, bu esa talabalarning faoliyatini guruhlash va taqqoslashda foydalidir. Masalan, tahlillar shuni ko'rsatadiki, masofaviy ta'limda talabalarning 60% darslarda faol ishtirok etsa, 40% diqqat darajasi past bo'ladi, bu esa individual yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanuvchini tanib olish va qaror qabul qilish samaradorligini oshirish masalasi chuqur yoritilgan. Yuzni tanib olish uchun OpenCV va Seetaface texnologiyalariga asoslangan, konvolyutsion neyron tarmoqlar orqali ishlov beruvchi algoritmlar, Haar to'rtburchak xususiyatlari, Bcrypt shifrlash usullari va ikki omilli autentifikatsiya mexanizmlari taklif etilgan.

Yuzni tanib olish masalasida tasvir xususiyatlarini ajratish Haar to'rtburchagi asosida amalga oshirilgan, bunda tasvirning xususiyat qiymatlari to'rtburchakning piksel qiymatlari bilan belgilanadi.

$$\cap^n_{[w,h]} = \left( \left\lfloor \frac{n}{w} \right\rfloor + \left\lfloor \frac{n-1}{w} \right\rfloor + \dots + \left\lfloor \frac{w+1}{w} \right\rfloor + 1 \right) * \left( \left\lfloor \frac{n}{h} \right\rfloor + \left\lfloor \frac{n-1}{h} \right\rfloor + \dots + \left\lfloor \frac{h+1}{h} \right\rfloor + 1 \right) \quad (1)$$

bu erda  $w$  va  $h$  mos ravishda to'rtburchak xususiyatlarining kengligi va balandligini ifodalaydi.

Yuqoridagi formuladan ko'rinib mumkinki, funksiyalar soni juda katta va OpenCV usuli bu muammoni integral tasvir usulini joriy etish orqali hal qiladi.

$$g(x, y) = \sum_{x' \leq x, y' \leq y} f(x', y') \quad (2)$$


bu erda  $f$  ixtiyoriy tasvir va  $g$  integral tasvir bo'lsin. Shunda har qanday  $A(x, y)$  piksel qiymati sufatida aniqlanadi.

$$s(x, y) = s(x, y - 1) + f(x, y), \quad (3)$$

$$g(x, y) = g(x - 1, y) + s(x, y) \quad (4)$$

bu erda  $s(x, y)$  har bir satr uchun yig'ma qiymat,  $s(x, -1) = 0$  ning boshlang'ich qiymati va  $g(x, y)$  ning boshlang'ich qiymati  $g(-1, y) = 0$  teng.

Tasvir xususiyatlarni ajratishda Seetaface usuli bu konvolyutsion neyron tarmoqning yangi tuzilishi bo'lib, bunda neyron tarmog'i bir necha modullardan ya'ni yuzni aniqlash, xususiyat nuqtalari joylashtirish, xususiyatlarni ajratish va taqqoslash modulidan iborat bo'ladi. Birinchidan, fon qismini olib tashlash uchun tasvirning yuz qismi segmentlarga bo'linadi. Algebraik shaklda ifodalangan xususiyatlar xaritasini olish uchun yuzning xususiyat nuqtalari tanlab olinadi va chiqariladi hamda u bir xil shaxs ekanligini aniqlash uchun korrelyatsiya bilan taqqoslanadi. Xususiyatlarni ajratib olish 2-rasmda ko'rsatilgan.




**2-rasm. Tasvir xususiyatlarni ajratish**


Ayniqsa, foydalanuvchini login-parol orqali birlamchi va biometrik identifikatsiya asosida ikkilamchi omil orqali tanib olish mexanizmi batafsil bayon qilingan. Shu bilan birga, real vaqtlı monitoring davomida doimiy yuzni aniqlash, harakat traektoriyasini kuzatish va "liveness detection" orqali haqiqiy foydalanuvchini ajratib olish texnologiyalari qo'llaniladi.

Masofaviy ta'lim jarayonlarini boshqarishning ko'p bosqichli imitatsion modeli taklif etilgan. Bu model uch asosiy bosqichni o'z ichiga oladi: HEMIS bilan API integratsiyasi orqali raqamli axborot bazasini shakllantirish, ikki omilli

autentifikatsiya orqali foydalanuvchini identifikatsiyalash va uchinchi bosqichda AI asosida avtoproktoring mexanizmlarini ishga tushirish. Foydalanuvchining shaxsini tanib olish, uning kameradagi harakatlarini real vaqtda kuzatish, harakat va ovozlari tahlili, aldov holatlarini aniqlash kabi funksiyalarni o'z ichiga oladi. Monitoring hisobotlari dashboard ko'rinishida vizual tarzda taqdim etiladi.




**3–rasm. Videomonitoring qilish axborot tizimining takomillashtirilgan funksional tuzilmasi**



**4–rasm. Masofaviy ta'lim jarayonlarini boshqarishning ko'p bosqichli imitatsion modeli**

Dissertatsiyaning “**Videomonitoring jarayonlarini tashkil etish va takomillashtirish algoritmlari**” deb nomlangan uchinchi bobida, real vaqtda identifikatsiyalash texnologiyalariga asoslangan videotasvirlardan yuzni tanib olish va haqqoniyligini aniqlash va uchun kengaytirilgan chuqur o‘rganish arxitekturasi hamda masofaviy ta’lim platformasida soxta yuzlarni aniqlashni chuqur neyron tarmoq modellarini ishlab chiqishga qaratilgan. Bunda real vaqtda identifikatsiyalash texnologiyalariga asoslangan videotasvirlardan yuzni tanib olish va haqqoniyligini aniqlash algoritmi keltirilgan. Yuzning haqqoniyligini aniqlash va tahlil qilish inson yoshi, jinsi, yuzning shakli, ko‘z, qosh, burun, lablarning joylashuvi va boshqa ma’lumotlarni olish va to‘plashni o‘z ichiga oladi. Real vaqtda identifikatsiyalash usullariga asoslangan videotasvirlardan yuzni haqqoniyligini aniqlash uchun Viola-Jones algoritmidan foydalanish belgilab olindi.

Xususiyatlarni ajratib olish uchun kulrang tasvir  $3 \times 3$  oyna katakchalariga bo‘linadi (5-rasmda ko‘rsatilgan) va markaziy 8-pikseli soat o‘ynalishi bo‘yicha yoki soat milliga teskari yo‘nalishda pikselning har biri bilan taqqoslanadi. Agar atrofdagi piksellar markaziy pikseldan kattaroq bo‘lsa, u shu 8-pixel bilan almashtiriladi aks holda u nolga tenglashtiriladi. Shunday qilib, olingan  $3 \times 3$  oynaning markaziy qiymatdan tashqari qiymatlarini soat o‘ynalishi bo‘yicha hisoblasak 8 bitli ikkilik son natijasini olamiz va asl katakdagi markaziy piksel bilan ikkilik sonning o‘nlik ekvivalenti bilan almashtiramiz. Bu hisob usuli tavrining markaziy xususiyatlarini aks ettirish uchun qo‘llaniladi.



**5–rasm. LBP operatori**

Agar  $a_c$  va  $a_0, a_1, a_2, \dots, a_{p-1}$  mos ravishda markaziy piksel hamda qo‘shni piksellar deb hisoblansa  $(x, y)$  ning joylashuviga qarab markaziy pikselga nisbatan 8 bitli LBP kodni olishimiz mumkin.

$$LBP(x_c, y_c) = \sum_{p=0}^{p-1} S(a_c - a_p) 2^p \quad (5)$$

Yuqorida keltirilgan tenglamani quyidagi  $s(f)$  chegara funksiyasi bilan aniqlash mumkin.


$$s(f) = \begin{cases} 1, & z \geq 0 \\ 0, & z < 0 \end{cases} \quad (6)$$

LBPH algoritmda tekstura deskriptori sifatida ishlatiladigan gistogramma asosan kirish tasviri uchun barcha piksellarning LBP kodlari to‘plamini beradi:

$$LBPH(h) = \sum_{x_c, y_c} \delta\{i, LBP(x_c, y_c)\}, i = 0, 1, \dots, 2^p - 1 \quad (7)$$

bu erda  $\delta(i)$  Kroneck funksiyasi sifatida tanlangan.


Butun kulrang yuz tasviri LBPH algoritmda bir nechta kichik mintaqalarga bo'linadi va keyin har bir kichik mintaqaning LBP xususiyati vektorlari chiqariladi. Shundan so'ng, LBP xususiyat vektorlaridan har bir kichik hududning gistogrammasi hisoblanadi. Keyin pastki hududlarning barcha gistogrammalari birlashtirilib, olingan to'liq tasvirning katta o'lchamli gistogrammasi tasvirning asosiy xususiyatini ifodalaydi.



**6–rasm. Imtixon jarayonini videomonitoring qilish algoritmi**


Ilmiy tadqiqot ishida Yuzni tanib olish bo'yicha tajriba ishlari noutbukning o'rnatilgan veb-kamerasi yordamida amalga oshirildi. Ushbu kamera yordamida olingan videotasvirlar dastlabki ma'lumotlar to'plami sifatida qabul qilindi. Tasvirlarning ayrimlarida aniqlik darajasi past bo'lganligi sababli, ularni qayta ishlash jarayonida kadr ga ajratish (frame extraction) usulidan foydalanildi. Tanib olish bosqichida veb-kameradan 100 millisekund oralig'ida olingan videotasvirlar ketma-ket kadrlar shaklida ajratilib, har bir kadr alohida rasm sifatida tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot ish uchun 10 kishidan iborat shaxslarning ma'lumotlar bazasini yaratdik. Tadqiqot ishida ikkita ma'lumotlar bazasi to'plami foydalanish uchun yaratildi. Birinchi ma'lumotlar bazasi to'plami 200 ta yuz tasviridan iborat bo'lib, unda jami 2000 ta yuz tasviri mavjud hamda ikkinchi ma'lumotlar bazasi to'plamida 5000 ta yuz tasvirlari mavjud.





**7–rasm. Video tasvirdan yuz va ob'ektlarni tanib olish algoritmi**

Masofaviy ta'lim platformasida inson yuzning jonliligini aniqlash uchun kengaytirilgan chuqur o'rganish arxitekturasida ishlab chiqilgan. Buning uchun Replay-Mobile ma'lumotlar to'plamida eng yaxshi natijalarga erishgan CNN-LSTM arxitekturasidan foydalanilgan.



**8–rasm. Yuz soxtaligi va haqoniyligini o'rganish neyron tarmoq modeli**

Taklif etilayotgan arxitektura kadrlar qatoriga chiziqsiz diffuziyani qo'llash orqali aniq chetlarni olish va chegaralarning joylashishini saqlashda ko'rinadi, shuningdek, diffuziyalangan kadrlarni CNN-LSTM tarmog'iga uzatish orqali amalga oshiriladi. Chiziqli diffuziya kiritilgan tasvirni barcha yo'nalishlarda bir xil sur'atda tekislaydi hamda shovqinni olib tashlaydi. Shu sababli, tekislik jarayoni tasvirning muhim xususiyatlari, masalan, chetlar haqidagi ma'lumotlarni hisobga olmaydi. Chiziqli diffuziya tenglamasining echimi quyidagicha beriladi:

$$\frac{\partial S}{\partial t} = \text{div}(d \nabla S) \quad (8)$$


$$\frac{\partial S}{\partial t} = \text{div}(g |\nabla S| \nabla S) I I \quad (9)$$



$$(S_k)^{t+1} = \sum_{l=1}^n (nS - \tau n^2 A_l)^{-1} S_k^t, \quad (10)$$

$$(S_k)^{t+1} = (2S - 4\tau A_1)^{-1} S_k^t + (2S - 4\tau A_1) S_k^t, \quad (11)$$

Jonlilikni aniqlash faqat tekislangan yuzlarda amalga oshiriladi. Jonlilikni aniqlashning eng oddiy modeli bu ketma-ket qatlamli CNN neyron tarmoq modeli hisoblanadi. Biz taklif etayotgan CNN oddiy bir necha bosqichli filtrlardan iborat. Modelga yuklangan barcha rasmlar 32\*32 o'zgartiriladi. Barcha piksellarning intensivligi [0,1] oraliqda o'lchanadi. Taklif etilayotgan model quyidagi rasmda ketrilgan.



**9-rasm. Foydalanuvchini identifikatsiya qilish va ularning shaxsini aniqlash asosida chuqur o'rgatilgan model**

Ushbu tadqiqotda inson yuzini tanib olish hamda haqoniylikni aniqlash uchun taklif etilgan CNN-LSTM arxitekturasida eksperiment o'tkazildi. Maqsad, turli shovqinlar va holatlar ostida yuzni hamda foydalanuvchi haqiqiylikni aniqlash jarayonini tadqiq qilishdir.

1-jadval


Modelni sinovdan o'tkazishda olingan natijalar

Model	Aniqlik (%)	Yo'qotish	Shovqinli sharoitdagi aniqlik (%)	Shovqinli sharoitdagi yo'qotish
CNN-LSTM (Diffuziya)	98.3	0.1	95.7	0.12
CNN-LSTM (faqat)	95.7	0.12	93	0.12
CNN (Diffuziya)	92.7	0.15	91	0.14
LSTM (faqat)	92	0.18	89	0.17

**Aniqlik:** CNN-LSTM modelimizda chiziqli diffuziya qo'shilganda aniqlik 98.3% ga etdi, bu esa boshqa modellar bilan solishtirganda (CNN-LSTM 95.7%, LSTM 92%) sezilarli yaxshilanishni ko'rsatadi.

**Yo'qotish:** Diffuziya bilan birlashtirilgan modelda yo'qotish 0.1 ga tushib, eng past ko'rsatkichni berdi. Bu yuqori aniqlik va past yo'qotish o'rtasidagi muvozanatni ko'rsatadi.


**Shovqinli sharoitlar:** Shovqinli sharoitlarda ham, diffuziya qo'shilgan model yuqori aniqlikni saqlab qoladi, bu esa uning real dunyo sharoitlarida ishlash imkoniyatini oshiradi.



**10–rasm. CNN-LSTM va boshqa modellar uchun Aniqlik va Yo‘qotishi tahlili**

Dissertatsiyaning “Masofaviy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizim jarayonlarini ishlab chiqish va takomillashtirish” nomli to‘rtinchi bobida. masovaviy ta’limni jarayoni videomonitoring axborot tizimi ma’lumotlar almashuv jarayoni, Masofaviy ta’lim jarayonlarida tinglovchilar o‘quv faoliyatini videomonitoring qilish axborot tizimi tajribaviy tatbiqi, korporativ axborot tizimida videomonitoring jarayonlarini integratsiya masalalari keltirilgan. Bundan tashqari ishlab chiqilgan axborot tizimi, model va algoritmlar asosida olingan tajribaviy tadqiqotlarning amaliy natijalari yoritilgan.

Taklif etilgan tizimning ishlash samaradorligi maxsus tayyorlangan video ma’lumotlar to‘plami asosida baholandi. Ushbu to‘plamning 15 foizi noqonuniy xatti-harakatlarni, qolgan qismi esa odatiy o‘quv faoliyatini aks ettiradi. Noqonuniy holatlar qatoriga uchinchi shaxsdan yordam so‘rash, mobil qurilmadan foydalanish, boshqa shaxs ishtirokida topshirish, kamera nazorati zonasidan chiqib ketish kiradi.



**11–rasm. Masofaviy ta’lim jarayonlarida tinglovchilar o‘quv faoliyatini videomonitoring qilish axborot tizimi arxitekturası**

Tizim ikki xil stsenariy asosida sinovdan o‘tkazildi: segmentlarga asoslangan (SA) va namunaviy ko‘rsatkichlar (NK) usullari. Har ikki yondashuvda to‘g‘ri aniqlash darajasi (TAD) va noto‘g‘ri aniqlash darajasi (NAD) metrikalari

hisoblandi. Imtihon ishtirokchisining noqonuniy xatti-harakatlari quyidagi matematik formulalar asosida ilmiy baholanadi:

$$NK(TAD) = \frac{\sum_i \text{aniqlangan noqonuniy xatti-harakatlari soni}}{\sum_i \text{qonuniy xatti-harakatlari soni}} \quad (12)$$


$$SA(TAD) = \frac{\sum_i \text{aniqlangan noqonuniy xatti-harakatlari soni}}{\sum_i \text{qonuniy xatti-harakatlari soni}} \quad (13)$$

Taklif etilgan tizimning samaradorligini baholash uchun Vardhaman AI Proctoring tizimi va Avtomatlashtirilgan Onlayn Proctoring tizimi bilan quyida taqqoslash jadvali keltirildi. Taklif etilgan usulning aniqlik qiymati 0,83 bo'lib, mavjud tizimlar yuzni soxtalashtirishni tekshirish jarayonida yuzning tekisligini tekshirmaydi.

2-Jadval

Mavjud tizimlar va taklif etilgan tizimning maxsus ma'lumotlar to'plamidagi (100 ta video) ko'rsatkichi

Mavjud tizimlar	Aniqlik	To'g'rilik	Ishonchlilik	Umumiy ko'rsatkich
Vardhaman AI_Proctoring	0.66	0.65	0.86	0.65
Automated Online Proctoring	0.64	0.60	0.85	0.64
Taklif etilayotgan tizim	0.87	0.81	0.96	0.83



12–rasm. Shaxsning jonli yoki soxta ekanlini taqqoslash, ob'ektlarni aniqlash va bosh holatini baholash jarayonlari

**Samaradorlik:** Videomonitoring aldash holatlarini 15% dan 6% ga tushirdi, ya'ni 9% pasayishga erishdi. Bu akademik adolalilikni oshirishda tizimning samaradorligini ko'rsatadi. **Aniqlik:** Tizim 90% aniqlik (Precision) va 90% eslab qolish (Recall) bilan ishlaydi, umumiy aniqlik esa 98.6%. Bu xalqaro tizimlar (masalan, ProctorU, 85-90%) bilan taqqoslaganda a'lo natija, lekin takomillashtirishga muhtoj. **Kamchiliklar:** 3 ta False Positive va 3 ta False Negative holatlar tizimning xatolarga yo'l qo'yishini ko'rsatadi. Bu AI algoritmlarini yaxshilash yoki video sifatini oshirish zarurligini anglatadi.

## XULOSA

“Masofaviy ta’lim jarayonlarida tinglovchilar o‘quv faoliyatini videomonitoring qilish axborot tizimi, model va algoritmlari” mavzusida olib borilgan tadqiqotlarning asosiy xulosalari quyidagilardan iborat.

1. Ilmiy, uslubiy va tashkiliy asoslar tizimli tahlil qilinib, mavjud videomonitoring platformalari imkoniyatlari baholandi, ularning afzallik va kamchiliklari aniqlanib, ularni milliy oliy ta’lim tizimi sharoitlariga moslashtirish zarurati asoslab berildi. Shu bilan birga, masofaviy ta’lim shaklida tahsil olayotgan talabalar uchun real vaqtli monitoring vositalarining talablari, funktsional tuzilmasi ishlab chiqildi. Natijada masofaviy ta’lim jarayonlarida tinglovchilar o‘quv faoliyatini videomonitoring qilish imkoniyati yaratildi.

2. Tinglovchilarning o‘quv faoliyatini nazorat qilishga mo‘ljallangan axborot modeli raqamli ta’lim muhitida tinglovchilarning o‘quv faoliyatini samarali nazorat qilish, ularning ishtiroki va xatti-harakatlarini avtomatik tahlil etish imkonini beradi. Model foydalanuvchi identifikatsiyasi, proktorlik natijalarini saqlash hamda HEMIS kabi axborot tizimlari bilan uzluksiz integratsiyani ta’minlab, pedagogik monitoringning ishonchliligini oshiradi. Natijada ta’lim jarayonining shaffofligi, nazorat mexanizmlarining aniqligi hamda raqamli boshqaruv samaradorligi sezilarli darajada yaxshildi.

3. Masofaviy ta’lim platformasi foydalanuvchilarini avtomatik identifikatsiya qilish va ularning faoliyatini real vaqt rejimida nazorat etishga mo‘ljallangan sun’iy intellektga asoslangan model ishlab chiqildi. Taklif etilgan algoritmlar foydalanuvchi yuzini aniqlash, CNN-LSTM tarmog‘i orqali jonlilikni baholash hamda YOLOv8 modeli yordamida ob’ektlarni aniqlandi. Ushbu yondashuv masofaviy ta’limda soxta foydalanuvchilarni ishonchli aniqlash va proktorlik jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qildi.

4. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida talabalarni videomonitoring qilish algoritmi ishlab chiqildi. Bu algoritmi foydalanuvchini tizimga kirishdan boshlab, uning xatti-harakatlarini tahlil qilish, real vaqtli ogohlantirishlar yuborish, natijalarni arxivlash va tahlil qilishgacha bo‘lgan bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu echim masofaviy nazoratning ishonchliligini oshirishga xizmat qildi.

5. Axborot tizimining integratsiyalash protseduralari ishlab chiqildi. Tizim tarkibiga autentifikatsiya, biometrik monitoring, ogohlantirish generatsiyasi va HEMISga natijalarni uzatish modullari kiritilib, ularning o‘zaro aloqasi standart interfeyslar orqali amalga oshiriladi. Natijada tizimning ishonchliligi, uzluksiz ishlash qobiliyati va real vaqt rejimidagi monitoring samaradorligi sezilarli darajada oshirildi.

6. Yuqorida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishi asosida “Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti”, Sarbon universiteti va “ICT ACADEMY” nodavlat ta’lim muassasalarida dalolatnomalar tuzildi. Keltirilgan dalolatnomalar asosida taklif etilgan videomonitoring qilish axborot tizimi mavjud avtoproktoring tizimlariga nisbatdan tinglovchining ishtiroki va xatti-harakatlarini avtomatik aniqlash samaradorlik ko‘rsatkichini 6-8% oshirish imkonini berdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.13/30.12.2019.Т.07.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ  
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИНФОРМАЦИОННЫХ  
ТЕХНОЛОГИЙ ИМИНЕ МУХАММАДА АЛ-ХОРАЗМИЙ**

**ХАЛИЛОВ СИРОЖИДДИН ПАНЖИЕВИЧ**

**ИНФОРМАЦИОННАЯ СИСТЕМА, МОДЕЛЬ И АЛГОРИТМЫ  
ВИДЕОМОНИТОРИНГА УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ  
СЛУШАТЕЛЕЙ В ПРОЦЕССЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ**

05.01.10 — Информационные системы и процессы

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B2025.1.PhD/T5529.**

Диссертация выполнена в Ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного Совета ([www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Хамдамов Уткир Рахматуллаевич**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Саидов Абдусобир Абдурахмонович**  
доктор технических наук, профессор

**Қаландаров Илёс Ибодуллаевич**  
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Самаркандском государственном университете**

Защита диссертации состоится «25» декабря 2025 г. в 16<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.13/30.12.2019.T.07.01 при Ташкентском университете информационных технологий (Адрес: 100202, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-43; факс: (99871) 238-65-52; e-mail: [tuit@tuit.uz](mailto:tuit@tuit.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского университета информационных технологий (регистрационный номер № 384). (Адрес: 100202, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-65-44).

Автореферат диссертации разослан «03» декабря 2025 года.  
(протокол рассылки № 36 от «01» 12 2025 г.).



**М.М. Мусаев**

Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор технических наук, профессор

**Э.Ш. Назирова**

Ученый секретарь научного совета по  
присуждению учёных степеней,  
доктор технических наук, профессор

**Ж.Б. Султанов**

Председатель научного семинара  
при научном совете по присуждению  
ученых степеней, доктор технических наук, доцент



## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации:** Мониторинг учебной деятельности слушателей стал важным инструментом повышения качества образования, оценки участия и оптимизации процесса обучения. Системы видеомониторинга и их программное обеспечение требуют новых технологических решений для обеспечения эффективности этого процесса. В качестве темы исследования данное направление является актуальным и для системы образования Узбекистана, поскольку развитие дистанционного обучения является одним из приоритетных направлений государственной политики.

Мировой опыт показывает, что при организации дистанционного образования основное внимание уделяется обеспечению его непрерывности, а также разработке вариативной системы, направленной на самостоятельное обучение через освоение современных образовательных технологий и новых форм профессионального развития. В Великобритании подготовка квалифицированных кадров осуществляется на основе различных подходов. В США мониторинг дистанционных образовательных процессов в системе высшего образования реализуется через автоматизированную систему управления Федерального министерства образования. Кроме того, обучающиеся направляют около 30% своего рабочего времени на практическую деятельность, что позволяет им повышать профессиональные компетенции и быть в тесной связи с процессами, связанными с их будущей специальностью на рынке труда.

В Республике Узбекистан в системе высшего образования также проводятся масштабные реформы в сфере дистанционного обучения. В частности, осуществляется индивидуализация образовательных процессов на основе цифровых технологий, развитие услуг дистанционного обучения, широкое внедрение в практику таких технологий, как вебинары, онлайн-обучение, «blended learning» (смешанное обучение), «flipped classroom» (перевернутый класс). Кроме того, предпринимаются меры по автоматической аутентификации личности студента во время экзаменов, контролю его поведения и направления взгляда, анализу звуков в помещении, исправлению искажений в видео. В Указе Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» отмечены задачи по дальнейшему совершенствованию системы высшего образования, развитию инфраструктуры образовательных учреждений и внедрению информационно-коммуникационных технологий в эту сферу<sup>1</sup>. В реализации данных задач важное значение имеют разработка и организация дистанционных образовательных программ на основе современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), мониторинг учебного процесса,

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 28 февраля 2023 года №УП-27 «О Государственной программе по реализации Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы в «Год заботы о человеке и качественного образования»».

наблюдение и анализ учебных занятий и контрольных мероприятий, а также создание алгоритмов и информационной системы видеомониторинга учебной деятельности слушателей в дистанционном обучении.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, предусмотренных Указами Президента Республики Узбекистан от 12 июня 2021 года №УП-4732 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы переподготовки и повышения квалификации руководящих и педагогических кадров высших образовательных учреждений», Указом от 27 августа 2019 года №УП-5789 «О внедрении системы непрерывного повышения квалификации руководящих и педагогических кадров высших образовательных учреждений», от 8 октября 2019 года №УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», а также Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 3 октября 2022 года №559 «О мерах по внедрению формы дистанционного обучения в организациях высшего образования» и другими нормативно-правовыми актами, регулирующими данную деятельность.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан: IV «Информатизация и развитие информационно-коммуникационных технологий».

**Степень изученности проблемы.** Во многих фундаментальных научных исследованиях мира вопросы мониторинга, внедрения эффективных форм оценки успеваемости студентов и повышения результативности образовательного процесса рассматривались в трудах таких учёных, как Adam Swinyard, Niall Marriott, J.D. Willms, Э. Н. Рычихина, Е.А. Семина, А.Н. Майоров, В.И. Вовна, Н.Ф. Илина, а также в работах, посвящённых разработке моделей и алгоритмов информационных систем мониторинга педагогических процессов.

В Республике Узбекистан научные исследования по вопросам моделирования информационных систем, разработки алгоритмов программ, организации поиска данных и внедрения ИКТ в образование активно проводятся такими учёными, как А.А. Абдукодиров, М. Арипов, У. Бегимкулов, У.Р. Хамдамов, А.Х. Нишанов, А.Б. Акбаралиев, Н.И. Тайлаков, С.С. Гулямов. В сфере обработки данных на основе методов интеллектуального анализа и формирования баз знаний исследования ведут М.А. Рахматуллаев, А.Х. Нишанов, Б.Б. Муминов. По вопросам моделирования информационных систем и процессов научные разработки осуществляют А.А. Саидов, Ж.Б. Султанов, Б. Махманов, Б.Б. Элов и Ж.Б. Элов.

Однако проблемы моделирования видеомониторинга участия обучающихся в процессе дистанционного образования в режиме реального времени с использованием технологий искусственного интеллекта,



